

QISSALARDA DAVR VOQELIGI TASVIRI ("SHUM BOLA" VA "SHUM BOLANING NABIRALARI" QISSALARASI ASOSIDA)

*Musayeva Shaxlo Kudratovna, Renessans ta'lim universiteti
"Filologiya" kafedrası v.b. dotsenti, (PhD)*

PERIOD REALITY DESCRIPTION IN STORIES (BASED ON THE STORIES "SHUM BOLA" AND "SHUM BOLANING NABIRALARI")

*Musayeva Shakhlo Kudratovna, Acting Professor of the
Department of Philology at the University of Education of the
Renaissance*

ИЗОБРАЖЕНИЕ РЕАЛЬНОСТИ ЭПОХИ В ПОВЕСТЯХ (ПО ПОВЕСТЯМ "ШУМ БОЛА" И "ШУМ БОЛАНИНГ НАБИРАЛАРИ")

*Мусаева Шахло Кудратовна, доцент образовательного
университета Ренессанс, доктор философии по
филологическим наукам (PhD)*

Annotatsiya: Maqolada Nosir Fozilovning "Shum bolaning nabiralari" qissasi, G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasining obrazlar tizimiga nisbatan davomiyligi haqida so'z boradi va qissalarning o'rtasidagi davr voqeiyiliqi asar epik qoliplariga ta'siri ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Anvar, Furqat, Qoravoy, davr, strategema, kompozitsiya, ijtimoiy-psixologik muhit, "Shum bolaning nabiralari", "Shum bola", o'z kuyi.

Abstract: The article discusses the continuity of Nosir Fazilov's story "Shum bolaning nabiralari", Gafur Gulam's story "Shum bola" in relation to the system of images, and reveals the influence of the reality of the period between the stories on the epic patterns of the work.

Key words: Anvar, Furqat, Koravoy, period, strategem, composition, socio-psychological environment, "Shum bolaning nabiralari", "Shum bola", his own music.

Аннотация: В статье рассматривается повесть Насира Фазилова "Shum bolaning nabiralari" как продолжение системы образов повести Гафура Гуляма "Shum bola" и раскрывается влияние реалий периода между этими произведениями на эпические формы повествования.

Ключевые слова: Анвар, Фуркат, Коравой, эпоха, стратегема, композиция, социально-психологическая среда, "Shum bolaning nabiralari", "Shum bola", самобытность.



[https://orcid.org/0009-0008-
1160-5634](https://orcid.org/0009-0008-1160-5634)
e-mail:
musayevashahlo81@gmail.com

KIRISH. Umuman olganda, qaysi uslubda ijod qilish, qaysi yozuvchidan o'rganish yoki unga ergashish ijodkorning shaxsiy ishi. Hamma gap erishilgan natijada. Adabiy ta'sir, adabiy aloqalarsiz, butun jahon adabiy jarayonidan ajralgan holda yuksak adabiyot, san'at namunalarini yaratish qiyin, albatta. Ayniqsa, o'zbek xalqining tabiatida bag'rikenglik, jahon madaniyatidagi eng ilg'or tamoyillarning qadriga yetish va e'zozlash fazilati kuchli. Buni buyuk Navoiy ijodi yorqin ko'rsatib turibdi. Buyuk mutafakkir mumtoz sharq adabiyoti yutuqlarini, qadimgi yunon, hind, xitoy adabiy-falsafiy tafakkurini puxta o'zlashtirgani o'lmas g'azallarida yaqqol seziladi. Ammo bu holat buyuk Navoiy asarlarining yuksak parvoz qilishiga zarracha xalal bergen emas. Yoki ulug'vor "Xamsa"ni yaratish ekan, Navoiy o'zidan oldin yashagan va fors tilida ijod etgan shoirlar — Nizomiy, Xisrav Dehlaviy hamda ustozи Abdurahmon Jomiylarning an'analarini, san'atkoriлик sirlarini puxta o'zlashtirmaganida xamsachilikda yuksak muvaffaqiyat qozona olarmidi? Bu tajriba almashish buyuk so'z san'atkordan keyin ham davom etib kelmoqda.

Yuqoridagi fikrni davom ettirgan holda shuni aytish mumkinki, ko'p yozuvchilar asar yaratish uchun qaysidir voqeа yoki asardan ta'sirlanganligini bot-bot aytib o'tishi ma'lum haqiqat. Jumladan, o'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy "O'tgan kunlar" romanini yaratish jarayonida mashhur tarixiy romanlar muallifi Jo'rji Zaydonning ijodiy tajribalaridan o'rganganini qayd etgan. Ayni zamonda adib bu arab romanchisi orqali yana bir mashhur tarixchi yozuvchi Valter Skott ijodi bilan ham tanishadi. Shuningdek, u tarixiy asarlarini yozar ekan, rus yozuvchilarini, xususan, A.S.Pushkinning nasriy mahoratidan saboq oladi. Buni "O'tkan kunlar" va "Kapitan qizi"ni qiyoslaganda yaqqol ko'rish mumkin. Binobarin, yozuvchilarimizning bunday ijodiy tajribalar vositasida kitobxonlarga qanchadan-qancha go'zal adabiy namunalar tuhfa qilganliklari ham ma'lum.

ASOSIY QISM. N.Fozilovni ham bunday an'anani buzmagan holda davom ettirgan adib, deb bemalol aytaverishimiz mumkin. Zero, tarjimonlik sirlarini Mirtemirdan, so'z qo'llash mahoratini Abdulla Qahhordan, teran fikrlashni Oybekdan, davr voqealarini yumor bilan singdirishni G'afur

G'ulomdan olgan adib o'zi ham xuddi shunday javob tariqasida bir necha asarlar yaratdi.

Shu o'rinda bolalar adabiyotining yorqin namunasi "Shum bola" qissasi bosh qahramoni haqida adabiyotshunoslikda har xil fikrlar bildiriladi, kimdir bu yozuvchining o'zi desa, yana kimdir yozuvchining tengdoshi deydi. Balki asarga qaysidir tarixiy shaxslar hayoti qay darajadadir asos bo'lib xizmat qilgandir. Shum bolaning keyingi hayoti qanday bo'lgani ham ko'pchilik kitobxonlarga qiziq bo'lishi mumkin. Bu haqda fikr yuritish uchun N.Fozilovning "Shum bolaning nabiralari" qissasiga murojaat qilamiz. Qissani o'qir ekanmiz, bevosita zamona viy shum bolaga duch kelamiz. Buni qarangki, asarning bosh qahramonlari Anvar bilan Furqat bo'lsa, "Shum bolaning nabiralari" qissasini o'qish jarayonida Shum bola Anvarning bobosi bo'lib chiqadi. Demak, "Shum bolaning nabiralari" qissasini adib G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasidan ilhomlanib yozgan yoki bu asar uning qaysidir ma'noda davomi yoki unga javoban yuzaga kelgan asar desak ham, mubolag'a bo'lmaydi.

Yozuvchi Anvar obrazini tasvirlashda G'afur G'ulomning shum bolasiga taqlidan yondashgani sezilib turadi. Faqat Anvar taraqqiy etgan davr bolasi ekanligidan uning shumliklari ham zamona viyroq. Masalan, u mакtabda fizika to'garagiga a'zo. Sababi, temir-tersak uning jon-u dili. Radiomi, eski televizormi, zvonog-u dazmolmiyey, xullas, qo'liga nima tushib qolguday bo'lsa, bilsa-bilmasa kavlagani-kavlagan. Shuning uchun hatto choraklik baholari ham pasayib ketadi. Uyda ham shu sababli turli hangomalarini qo'zg'ab yuradi.

Anvarning shumtakaligi kattalar tomonidan kulgi qilinib, uning bobosiga o'xshashligi, Nazarbekdagи voqealar, kimlar ishtirot etgani tilga olinadi va 20-yillardagi voqealar eslanadi. Asarda Shum bolaning qahramonligi va qaysarligi, bolalarcha harakati, shumliklari qissa bosh qahramoni Anvar orqali o'quvchilarga yetkazilgan.

Anvar Shum boladan farqli ravishda taraqqiy etgan davr bolasi ekanligini qayd etgan edik. "Davr va qahramon badiiy ijodning hamma bosqichlarida eng muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan. Chunki bu ikki tushuncha o'zar bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi, izohlaydi, ularning badiiy talqinida muayyan zamon va shaxs munosabati aks etadi. Davr qahramonlarni yaratadi.

Qahramon esa davrga ta'sir etadi, uning ijtimoiy-estetik mazmunini belgilaydi. Zero, har bir davrga xos asosiy xususiyatlar shaxsning turmush tarzi, xatti-harakati, ruhiyati, umuman qismatida namoyon bo'ladi. Bu jarayon uzlusiz xarakter kasb etishi tufayli davr ham, qahramon ham o'zgarib boradi. Demak, shu asosda biz tushunadiganimiz Inson mohiyati turli davrlarda turlicha jilo beradi. Chunki har bir davr alohida spetsifikaga ega ijtimoy-psixologik muhit sifatida insonga – ijodkorga o'ta'sirini o'tkazadi[3].

Davr va inson muammosi hamisha adabiyotda markaziy o'rinn egallab kelgan va shunday bo'lib qolmoqda. Davr inson xarakteriga muayyan o'zgartirishlar kiritadi, biroq uning tub mohiyatini butunlay o'zgartira olmaydi. Zaif va muloyim xarakterlar o'tkinchi muhit ta'siriga tez beriladilar, ammo barqaror xarakterlarda davr, muhit ta'siriga nisbatan qarshilik ko'rsatish kuchli bo'ladi. N.Fozilovning "Shum bolaning nabiralari" qissasini davr voqealigi asosida tadqiq etish, ayniqsa, shu jihatdan xarakterlidir. Chunki yozuvchining bu asarida adabiyotimizning o'lmas asariga nisbatan davr voqealari munosabati berilgan. G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasida XX asrning 10-yillaridagi jamiyat hayotidagi qiyinchiliklar tasvirlangan bo'lsa, N.Fozilovning "Shum bolaning nabiralari" qissasida XX asrning 80-yillar voqealari qalamga olinmoqda.

XX asrning 10-yillarida shaharda ishsizlik avj olishi tufayli bolalar tugul kattalar ham qiyinalgani ma'lum haqiqat. Kitobxon shum bolalarni, "ertadan kech ko'cha-ko'yda sandiroqlab yuradigan uvin-to'da bekorchilar"ni ko'rgach, ularning uyni tashlab chiqib ketib, o'z boshlaridan katta sarguzashtlar o'tkazishiga sira shubha qilmaydi. Qissaning dastlabki nusxasida Shum bolaning uch-to'rt do'sti tilga olinsa-da, ulardan faqat Omongina keyingi, qayta ishlangan nusxaga kiritilgan. Shum bola ikkisi zohiran kulguli, botinan g'ussali bo'lgan hangomalarni boshdan o'tkazishadi.

Yuqoridagi misollardan ko'rinish turibdiki, G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasi shunchaki yengil-yelpi hangomalarga yo'g'rilgan asar emas. Uning zamirida yotgan achchiq haqiqat har bir o'quvchini jiddiy o'yga toldiradi. Tegishli xulosalar chiqarishga undaydi. Davr voqealigi orqali hayotning achchiq haqiqatini ham yoritib beradi.

"Shum bola" aniq voqealar va real shaxslar asosida qurilib, uning markazida yozuvchi

hayotidan olingen ko'p dalillar tursa-da, u avtobiografik asar emas, unda aniq tarixiy dalillarga nisbatan badiiy to'qima, fantaziya kuchli. Voqealar hozirgi zamonda tasvirlanadi. "Shum bolaning nabiralari" esa hayotiy voqelik asosida qurilib, badiiy to'qima bilan boyitilgan. Qissa muallif tilidan bayon etiladi.

"Shum bola" qissasida ham hayot, voqelik avtobiografik asardagi kabi asar qahramonlarining ko'zi, dunyoqarashi, tushunchasi, kechinmasi nuqtayi nazaridan aks ettiriladi, bosh qahramonning o'zi hikoyachi, syujeti sarguzasht xarakterida. Shuning uchun ko'p qahramonlar yo'lda paydo bo'lib, sahnadan tushib qoladi. Shu bois asardagi antropoimlar tizimi boy va xilma-xil. "Shum bola" qissasidagi antropoim "kuchli, qudratli bola" ma'nolariga ham ega. Bizningcha, ism bundan tashqari, o'zida bir qancha majoziy ma'nolarni ham jamlagan. Shum bola sarguzasht davomida "qora kunlarni" boshdan kechiradi. Shunga nisbat berib Hoji bobo uni Qoravoy deb atagan bo'lsa beziz emas. Asar davomida Shum bola o'zining shumliklari bois Shum bola laqabini oladi va bu unga keyinchalik nom bo'lib qoladi"[1].

Ma'lumki, har bir ijodkorning o'z uslubi, o'z yo'nalishi bo'ladi. Kimningdir murakkab uslubdagi asarini tushunish uchun kitobxon o'zini anchagina zo'riqtirishga majbur bo'lsa, kimningdir sodda uslubdagi bitigini qabul qilib zavqlanadi. Badiiy niyatini xarakterlar talqinida kitobxonga qanday yetkazib berish iste'dod sohibining uslubi, mahorati bilan belgilanadi.

N.Fozilovning bolalarbop yozilgan bu asarini o'quvchi zavqlanib o'qydi, chunki asarda voqealar ketma-ketligida o'quvchini qo'rquvga soladigan, o'ylantiradigan, yashash uchun kurashishga chorlaydigan holatlar emas, balki bolalarbop yengil sarguzashtlar bayon qilinadi. Adibning "Shum bolaning nabiralari" bolalar adabiyotidagi prozaik aspekt sifatida yozilgan asarlar sirasiga kiradi.

Avvalambor, ikkala asarning bosh qahramonlari, Shum bola va Anvarga to'xtalamiz. Anvarning vaziyatdan chiqishi bolalarcha sho'xlikka qaratilgan bo'lsa, Shum bolaning yolg'onlari qorni och qolmaslik, nochor qolgan vaziyatdan chiqish, o'zini himoya qilish va zulmga qarshi kurashishning bir ko'rinishi deb baholansa bo'ladi.

Shum bola (Qoravoy) – "Shum bola" qissasining bosh qahramoni ham shunday og'ir kunlarda otasidan ayrilgan, o'n to'rt yoshli

bolakay. Hech qayerda tahsil olmaydi. Ertadan kechgacha ko'cha changitib o'ynagani-o'ynagan.

Anvar – ota-onasi o'qimishli, o'zi ham mактабда o'qиди, лекин дanganaligi tufayli nuqul "2" baho oladigan bola.

Shum bolaning do'sti Omon bekor yurmasdan, shunday qiyin zamonda oilasi uchun foydasi tegadigan ishlar bilan shug'ullanadigan, sho'xliklari joniga tekkan bo'lsa-da, do'stini tashlab ketmasligi bilan do'stlik tuyg'ulari bayon etiladi.

Anvarning do'sti Furqat sinfdoshi ham, do'sti bilan to'garaklarga birga qatnashadi, bolalarcha sho'xliklari yetarli, Anvardan farqli ravishda "2" baho bilan ko'p siylanmagan.

Javlonxo'ja otasining lozimsiz ko'chada sharmanda bo'lganini eshitsa, ko'karib ketadi. Shuning uchun bobosining nomini eshitishi bilan jahli chiqdi. Bolalar tushundiki, boy a uyiga kirib televizor ko'rayotganda ham kelib qolib, uydan shunga quvib solgan ekan-da. Bolalar barcha ma'lumotni olib, endi Omon maxsumni izlagani qaytayotib, Javlonxo'janing qo'rsligi, kecha "shum bolalar" deb urishgani esiga tushib, "shum bolalar" qanaqa bo'lishini ko'rsatmoqchi bo'ladilar:

"*Bolalar yo'lga tushishdi. Bir oz yurgach, orqalaridan «tez yordam» mashinasi signalini chalib, shitob bilan o'tib ketdi. Bolalar epchillik bilan o'zlarini chetga olishdi.*

- Muncha hovliqadi bu! - dedi Anvar ustiga sachragan bir-ikki tomchi loyni arta turib. Ular yana yo'lga tushishdi. Xiyol yurishgach, bundoq qarashsa, shundoq ko'chaning boshida Javlonxo'ja kelayotibdi. Qo'lida o'rog'liq narsasi bor. Magazindan tag'in nimanidir o'marib kelyapti, guman qilishdi bolalar. Anvarning esiga boyagi rejasi tushib, miyasi tez ishlab ketdi. U shu zahoti g'alati yo'rg'alab borib, Javlonxo'jaga salom berdi, so'ng orqasiga o'girilib, Furqatga ayyorona ko'z qisdi-da:

- Jon amaki, meni kechiring, - dedi ikkala qo'lini ko'ksiga qo'yib. - Jon amakijon, kechira qoling...

Javlonxo'ja qaddini rostladi. Haligi narsani u qo'lidan bu qo'liga oldi. Hozirgina oldilaridan o'tgan "tez yordam" mashinasi unga ham loy sachratib o'tib ketgan shekilli, cho'ntagidan dastro'molini olib, so'kinib artarkan, bir chekkaga tuflab so'radi:

- Sen bola nima ish qiluvdingki, men kechiraman? - U hali ham uyoq-buyog'ini artardi. - Tfu, la'nati...

- Anu, chipor tovug'ingizni so'yib qo'ydim... - Nega so'yar ekansan! - Javlonxo'janing tovushi o'zgardi.

- Anaqa... tomdan qa-qag'lab tushib... anu bostirma tagida turgan kulrang qashqangizni hurkitib yuborib...

- Hurkitsa chipor tovuqni so'yasanmi, la'nati!

- Nega so'ymas ekanman, - dedi Anvar ham tovushini bir banya ko'tarib, - toyingiz birdan yulqinib, bostirmaning ustunini toydirib yubordi-da!

- Keyin nima bo'ldi, juvonmarg?

- Keyin oxurda kurt-kurt kavsh qaytarib turgan buqangizni tom bosib o'ldirdi.

- Voy, bo'rdoqi buqam! - dedi Jovlonxo'ja ingrab. - Sattor qayoqda edi, Sattor!

- Sattorxo'jangiz hurkigan toydan qochaman deb, ayvondagi toshoynangizga boshini urib olib chil-chil qildi.

- Nima deyapsan o'zi, haromi? Boshini chil-chil qildimi, oynanimi?

- Oynani ham, boshini ham...

- Voy bolam... - u yuragini changallab devorga suyanganicha o'tirib qoldi. - O'zi omonmi?

- O'zini haligi sizga loy sachratib ketgan "tez yordam" olib ketdi, amaki.

- Voy juvonmarglar... Senlar nima qilib yuruvdilaring biznikida, a?

- Anaqa, rangli televizoringizni tuzatmoqchi edik.

- Voy, televizor yap-yangi edi-ku!.. Nima balo orttirdilaring yana?

- Anaqa, tag'in ham yaxshiroq ko'rsatadigan qilayotuvdik...

- Dard qilayotuvdik! Nima bo'ldi? - dedi Javlonxo'ja sillasi qurib.

- Anaqa... Orqasidan pov etib olov chiqib... yo'g'-e! Avval puf etib tutun chiqdi shekilli, a? - deb Anvar Furqatga o'girilgan edi, qarasa serraygan ko'yi haykaldek qotib qolibdi. Shu bilan gapni to'xtatdi. Javlonxo'ja xuddi o'zidan ketayotgan odamdek devorga suyanib o'tirar, ammo ikkala ko'zi ochiq, ma'nosiz, zo'rg'a nafas olardi. Shu payt negadir uning ko'z o'ngida kechagi bobosi hikoya qilib bergen voqeа gavdalaniб ketdi: saratonda tuprog'i ko'pchib yotgan katta yo'l o'rtasida, ikki qo'li orqasiga qayirib bog'langan, oq surp

ko 'ylagining ko 'kragi qip-qizil qon, aft-basharasi tuproqqa belangan To 'lanxo 'ja jimgina cho 'zilib yotardi". ("Shum bolaning nabiralari". - B. 71-72.)[2].

Shu o'rinda bevosita Shum bolaning Sariboy bo'lisni qanday chuv tushirgani yodimizga tushgan bo'lsa, Anvar ham Javlonxo'jani shu tarzda ketma-ket yolg'onlari bilan ishontiradi. Ikkala asarda ham, qaysi zamonda bo'lmasin, "boyga mol achchig'i, molga jon achchig'i" deganlaridek, boylar moliga kelgan balo oqibatida shunchaki bolaning so'ziga ishonib, o'zini yo'qotib qo'yemoqda. Shum bolaning yolg'onlari XX asr boshlaridagi detallarga nisbatan fonus, shag'am, omborxonaga bog'lansa, Anvarning yolg'onlari taraqqiy etgan davrga xos televizor, tez yordam mashinasi bilan ishonarli tarzda voqealar ketma-ketligi bayon qilingan. Ikkala qissa kompozitsiyasida ham ertak motividagi bayon usuli almashib keladi.

N.Fozilov "Shum bolaning nabiralari" qissasining xarakterli tamoni shundaki, adib bu asarida voqeaneing "stratagema" deb atalgan turini mahorat bilan qo'llab, epik bayon imkoniyatini yanada kengaytirgan.

Demak, N.Fozilovning ushbu qissasiga o'ziga xoslik bag'ishlagan omillardan biri yuqorida xususiyatlardan jamlanganligidadir.

Qissalarning ruhiyati tasviridagi imkoniyatlari davrlar o'tishi bilan, badiiy tafakkur taraqqiyoti bilan aloqadorlikda o'zgarib turadi. Masalan, XX asrning 50-70 yillarida ruhiyat tasviri qahramonning xatti-harakati bilan bog'liqlikda berilsa, keyinchalik xatti-harakat va ruhiy holatlar tasviri bir-birini asoslash uchun xizmat qila boshladi. O'tgan asrning 90-yillaridan boshlab o'zbek qissalarida psixologizm doirasi yanada kengaydi, voqeasini tasviridan ruhiyat tahliliga o'tish ustuvor bo'la boshladi.

O'tgan asrning 80-90-yillari hamda 2000-yillarda jamiyatimizdagi ijtimoiy shart-sharoitlar avlodlar o'rtaqidagi munosabat masalasining har doimgidan ham ko'proq dolzarblashuviga olib keldi.

Ikkala asar ham Sho'ro tuzumi davrida yaratilgan ikki xil tiplardir. Sababi, ikkala asarning yaratilish vaqt va davr tuzumida vaqt oralig'i bor. Birinchidan, yangi va eski avlod vakillari o'rtaqidagi munosabatlar namoyon bo'lmoqda. Ikkinchidan, bu qahramonlarning aksariyati ikki tuzum, ikki davrda yashagan va yashayotgan kishilar. Har qanday badiiy asarda inson hayoti, uning baxt-u saodati, tashvish-u g'amlari, kurashi yoritiladi. Binobarin, badiiy asarda tasvirlanayotgan har bir davrning o'z takrorlanmas ruhi, ohanglari bo'lishi hech kimga sir emas.

XULOSA. N.Fozilov muayyan davrga xos tamoyilni belgilashga, qahramoni fitratini turli aspektida yoritishga mavjud madaniy, estetik kanonlar asosida voqelikni tasvirlashga harakat qiladi. Shu bilan birga qissa qahramonlari portreti ancha siqiq beriladi, ya'ni batafsil chizilmaydi. Adabiyotshunos P.Shermuhamedovning "Afsuski, qissa kutilmaganda tugaydi, natijada muallifning niyati, ko'zlagan maqsadi butunisicha yuzaga chiqmay qolgan. Ko'rinib turibdiki, voqealar davom etishi kerak edi, zotan G'afur G'ulomning "Shum bola"sining nabiralari sarguzashti endi qizg'in pallaga kirayotganda yakunlandi", - degan fikrlari balki, o'rinlidir. Ammo adib shum bolaning keyingi avlodini yuzaga keltirishni shogirdlariga qoldirgan deb izohlashimiz ham mumkin.

"Shum bola" va "Shum bolaning nabiralari" o'z kuyiga, o'z ruhiga ega asarlardir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Улуқов Н. "Шум бола" қиссасидаги библоним ва антропонимлар хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. -2017. -№3.-Б.67.
2. Фозилов Н. Шум боланинг набиралари. Тошкент: Ёш гвардия, 1985. - 218 б.
3. Ҳамдамов У. Давр руҳининг шеъриятда акс этиши // Ўзбек тили ва адабиёти. - 2001. - №1. – Б.22.
4. Musayeva Sh.K. O'zbek bolalar nasri taraqqiyotida Nosir Fozilov ijodi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya. T.2023.